NOMUSGA TEGISH JINOYATLARIDA JABRLANUVCHINING VIKTIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sunnat Polvonov
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tezisda nomusga tegish jinoyatlaridan jabrlangan shaxslarning viktimologik xususiyatlari turmush tarzi va kundalik faoliyat nazariyalari hamda zo'ravonlik xavf omillarining ko'p darajali modeli asosida tahlil qilinadi. Empirik ma'lumotlar jabrlanuvchilar tarkibida voyaga yetmaganlar va yoshlar ulushi yuqoriligini, jinoyatlarning nazorati cheklangan muhitda, ko'p hollarda yaqin munosabatdagi shaxslar tomonidan sodir etilishini ko'rsatadi. Viktimologik profilaktikani jabrlanuvchini ayblamasdan, xavf guruhlari va muhit omillariga yo'naltirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: viktimologiya, viktimlik, jabrlanuvchi, nomusga tegish, jinsiy zo'ravonlik, voyaga yetmaganlar, viktimogen omillar, viktimologik profilaktika.

Kirish. Jinsiy zo'ravonlik shaxsning jismoniy daxlsizligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy hayotiga uzoq muddatli zarar yetkazuvchi murakkab kriminal hodisa bo'lib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) uni inson huquqlari va jamoat salomatligiga daxldor jiddiy muammo sifatida baholaydi [1]. Jinoyatni faqat jinoyatchi shaxsi va motivi orqali emas, balki jinoyat sodir bo'lgan vaziyat, jabrlanuvchining zaifligi va himoya mexanizmlari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish G. fon Hentig asarlaridan boshlab viktimologiyaning asosiy g'oyasiga aylandi [2]. Bu yondashuvda viktimlik shaxsning muayyan sharoitda jinoyat qurboniga aylanish ehtimolini belgilovchi obyektiv (yosh, jins, jismoniy imkoniyat) va subyektiv (ijtimoiy rol, munosabatlar, kundalik faoliyat) belgilar yig'indisi sifatida tushuniladi. Tadqiqotning maqsadi nomusga tegish jinoyatlaridan jabrlanganlarning asosiy viktimologik belgilarini nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilish va profilaktika uchun xulosalar shakllantirishdan iborat. Statistik, tizimli va qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Nazariy asoslar. Jinsiy viktimizatsiyani tushuntirishda turmush tarzi va kundalik faoliyat nazariyalari keng qo'llaniladi. Ularga ko'ra jinoyat uchta element – motivatsiyalangan jinoyatchi, mos nishon va qodir himoyachining yo'qligi – bir vaqt va makonda uchrashganda sodir bo'ladi [3], jabrlanish ehtimoli esa shaxsning jinoyatchiga yaqinligi va jinoyatga duchor bo'lish darajasini belgilovchi kundalik faoliyatiga bog'liq [4]. So'nggi tizimli sharhda to'g'ridan-to'g'ri jismoniy aloqali jinsiy viktimizatsiyani tushuntirishda "exposure", "proximity", "target suitability" va "guardianship" tushunchalari markaziy o'rin tutishi qayd etilgan [5] [6]. JSST esa xavf omillarini individual, munosabatlar, hamjamiyat va jamiyat darajalarida birgalikda baholashni talab qiladi [7].

Jins va yosh omili. Empirik ma'lumotlarga ko'ra, jabrlanuvchilarning 99,2 foizini ayollar, 0,8 foizini erkaklar tashkil etadi. Bunday keskin nomutanosiblik jinsga xos ijtimoiy-madaniy zaiflik bilan birga, erkak jabrlanuvchilar orasida latentlik yuqori bo'lishi bilan ham izohlanishi mumkin, shu sababli monitoringni bitta jins bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. Yosh tarkibida voyaga yetmaganlar 54,2 foiz, 18-30 yoshdagilar 24,1 foiz, 31-49 yoshdagilar 17,6 foiz, 50 yoshdan oshganlar esa atigi 4,1 foizni tashkil etadi, ya'ni jabrlanuvchilarning qariyb to'rtdan uch qismi 30 yoshgacha. Nazariy jihatdan yosh "mos nishon" tushunchasining asosiy ko'rsatkichidir. Bola xavfni baholash, qarshilik ko'rsatish va yordam so'rash imkoniyati cheklangan, kattalarga qaram bo'lgani uchun alohida zaif hisoblanadi. Braziliyada o'tkazilgan tadqiqotda jinsiy zo'ravonlik holatlarining 78,3 foizi 15 yoshgacha bo'lgan qizlarga to'g'ri kelgani va jabrlanuvchi yoshi kichraygan sari jinoyatchi bilan yaqin qarindoshlik ulushi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ortishi aniqlangan [8]. Bizning ma'lumotlarimizda ham ko'plab holatlarda jinoyatchi begona emas, balki yaqin qarindosh yoki ishonchli shaxs bo'lishi qayd etilgan. Demak, "begona jinoyatchi" modelidan tashqari ishonchga asoslangan munosabatlardagi viktimizatsiyani alohida ajratish lozim.

Ijtimoiy-demografik belgilar. Jabrlanuvchilarning 69,1 foizi turmush qurmagan, 22 foizi nikohda, 6,8 foizi ajrashgan; qariyb yarmi o'quvchi va talabalar, 86,7 foizi to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotli. Biroq bu belgilar, avvalo, yosh tarkibining hosilasi bo'lib, ularni jinoyat qurboni bo'lish "sababi" sifatida talqin qilish metodologik jihatdan noto'g'ri: o'rtadagi bog'liqlik sababiyatni anglatmaydi. Yosh bilan birga maktab, oila va mahalla kabi himoya institutlarining samaradorligi ham baholanishi kerak.

Sog'liq holati va qarshilik. Jabrlanuvchilarning 93,8 foizi sog'lom, qariyb 6 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar; 55,8 foiz holatda tan jarohati yetkazilgan, 42,8 foizida esa tan jarohati qayd etilmagan. Jismoniy izlarning yo'qligi yoki faol qarshilik bo'lmaganini jabrlanuvchining roziligi bilan tenglashtirib bo'lmaydi: qo'rquv, kutilmagan hujum, tahdid, ruhiy bosim, shok va ishonchga asoslangan munosabatdagi tazyiq qarshilik imkoniyatini cheklaydi. Jabrlanuvchi xatti-harakati jinoyat sababi emas, balki viktimizatsiya vaziyatining tarkibiy elementi sifatida baholanishi kerak.

Makon-vaqt omili va latentlik. Jinoyatlarning 33,9 foizi uy-joylarda, qolgani dala maydonlari, avtomobil salonlari kabi yopiq va nazorati cheklangan joylarda sodir etilgan; 40 foizdan ortig'i kechqurun va tunda (18:00-06:00) ro'y bergan. Bu xavf faqat qorong'ulikka emas, balki jabrlanuvchi va jinoyatchi o'rtasidagi kundalik aloqalar hamda qodir himoyachining yo'qligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Jinoyat oshkor etilmasligiga yaqin munosabat, oilaning buzilishidan qo'rquv, uyat, ijtimoiy stigma va huquqiy jarayonga kirishni istamaslik ta'sir qiladi. Bu latentlikni kuchaytiradi, shuning uchun rasmiy statistika bilan birga anonim so'rovlar va tibbiy-psixologik xizmatlar ma'lumotlaridan foydalanish zarur.

Ilmiy muhokama. Jabrlanuvchining viktimologik belgilarini to'rt o'zaro bog'liq blokka ajratish mumkin: individual-demografik (yosh, jins, sog'liq), ijtimoiy (ta'lim, oilaviy holat, bandlik), vaziyatga oid (joy, vaqt, nazorat, jinoyatchi bilan munosabat) va jinoyatdan keyingi xatti-harakat (murojaat qilish yoki sukut saqlash). Bu JSST ning ko'p darajali modeliga mos keladi [7]. Shu bilan birga viktimologik tahlilni jabrlanuvchini ayblashga (victim-blaming) olib keluvchi yondashuvlardan qat'iy ajratish kerak: kechasi ko'chada bo'lish, qarshilik ko'rsatmaslik yoki jinoyatchiga ishonish javobgarlikni jabrlanuvchiga o'tkazmaydi. Mahalliy ilmiy adabiyotda ham viktimologiya viktimlik va viktimologik profilaktika bilan shug'ullanuvchi mustaqil yo'nalish sifatida yoritilgan [9].

Xulosa. Jinsiy zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli bitta omil bilan emas, yosh, ijtimoiy mavqe, himoyasizlik, jinoyatchi bilan munosabat, makon-vaqt va ijtimoiy nazorat darajasining o'zaro ta'siri bilan shakllanadi. Voyaga yetmaganlar (ayniqsa, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar), maktab o'quvchilari, nogironligi bo'lgan shaxslar va jinoyatchi bilan yaqin munosabatdagi jabrlanuvchilarni viktimologik monitoringga olish tavsiya etiladi. Profilaktikani uch bosqichda tashkil etish taklif qilinadi: xavfni erta aniqlash; xavfli muhitni xavfsizlashtirish; jinoyatdan keyingi huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordamni kuchaytirish. Ota-ona va muassasalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda yordam xizmatlarini o'z ichiga olgan kompleks choralar xalqaro amaliyotda ham tavsiya etilgan [10].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Violence Against Women Prevalence Estimates, 2018. Geneva: WHO, 2021.
2. Hentig H. von. The Criminal and His Victim: Studies in the Sociobiology of Crime. New Haven: Yale University Press, 1948.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Cohen L.E., Felson M. Social Change and Crime Rate Trends: A Routine Activity Approach // American Sociological Review, 1979, Vol. 44, No. 4, pp. 588–608.
4. Hindelang M.J., Gottfredson M.R., Garofalo J. Victims of Personal Crime: An Empirical Foundation for a Theory of Personal Victimization. Cambridge, MA: Ballinger, 1978.
5. Hayes B.E., Maher C.A. A Systematic Review of Lifestyle-Routine Activity Theory in the Context of Direct-Contact Sexual Victimization // Trauma, Violence, & Abuse, 2024, Vol. 25, No. 1. DOI: 10.1177/15248380231153864.
6. Hayes B.E., O'Neal E.N., Hernandez C.N. The Sexual Victimization of College Students: A Test of Routine Activity Theory // Crime & Delinquency, 2021. DOI: 10.1177/0011128720954347.
7. World Health Organization. Preventing violence against children: a social determinants framework for INSPIRE implementation. Geneva: WHO, 2025.
8. Costa E.L. et al. The association between victim-offender relationship and the age of children and adolescents who suffer sexual violence: a cross-sectional study // Journal of Pediatrics, 2022, Vol. 98, No. 3, pp. 310–315. DOI: 10.1016/j.jped.2021.07.001.
9. Rustamboyev M.X., Niyozova S.S. Oiladagi zo'ravonlik va tazyiqlarning jinoyat-huquqiy, kriminologik va viktimologik jihatlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024.
10. World Health Organization et al. INSPIRE: Seven strategies for ending violence against children. Geneva: WHO, 2016.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.